


Korxonalar va tashkilotlar

(2018 yil yanvar-oktabr)

2018 yilning yanvar-oktabr oyida Respublikada 47,1 mingtaga yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 11,7 mingtaga ko'pdir.

Buning natijasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 32,1 mingta (11,2 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 318,3 mingtani tashkil etgan.


Korxonalar va tashkilotlar yillar kesimida soni
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), ming birlikda




Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'zida tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, xayotga tadbiiq qilinmoqda.

Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), ming birlikda




Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 noyabr holatiga)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 21,8 % savdoda, 17,5 % sanoatda, 8,9 % qurilishda, 7,6 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 6,1 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 4,1 % tashish va saqlash, 2,2 % axborot va aloqa, 2,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 29,7 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarning hududlar kesimida soni, o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) birlikda




**Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	2018-yil 1 noyabr xolatiga	
			Ro'yxatdan o'tgan, %	Faoliyat ko'rsatayotgan, %
O'zbekiston Respublikasi	272593	258736	100	100
Qoraqalpog'iston Respublikasi	12171	11782	4,5	4,5
<i>viloyatlar:</i>				
Andijon	23782	22469	8,7	8,7
Buxoro	15336	14455	5,6	5,6
Jizzax	11585	10955	4,2	4,2
Qashqadaryo	16934	16413	6,2	6,2
Navoiy	8979	8781	3,3	3,3
Namangan	18023	17014	6,6	6,6
Samarqand	20101	19078	7,4	7,4
Surxondaryo	12533	11750	4,6	4,6
Sirdaryo	8779	8146	3,2	3,2
Toshkent	28716	24827	10,5	10,5
Farg'ona	23095	22857	8,5	8,5
Xorazm	12426	11659	4,6	4,6
Toshkent sh.	60133	58550	22,1	22,1

2018 yil yanvar-oktabr holatiga 47190 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan 33,2 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Toshkent shahrida (10585 ta), Toshkent (4612 ta), Samarqand (4063 ta) va Farg'ona (3762 ta)

viloyatlarida tashkil etilgan. Eng kam Sirdaryo (1277 ta), Navoiy (1791 ta) hamda Xorazm (1994 ta) viloyatlarida tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda




Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi savdoda (9752 ta), sanoatda (9509 ta), qurilishda (5451 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (4945 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (1029 ta), axborot va aloqada (1068 ta) hamda tashish va saqlashda (1756 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	2016 yil 1 noyabr xolatiga			2017 yil 1 noyabr xolatiga			2018 yil 1 noyabr xolatiga		
	Jami	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy soniga nisbatan, %	Jami	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy soniga nisbatan, %	Jami	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy soniga nisbatan, %
Sanoat	5848	101,1	20,9	8878	151,8	25,1	9509	107,1	20,2
Savdo	7140	116,0	25,6	6827	95,6	19,3	9752	142,8	20,7
Qurilish	2852	95,0	10,2	3330	116,8	9,4	5451	163,7	11,6
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	2354	103,1	8,4	4647	197,4	13,1	4945	106,4	10,5
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2404	105,9	8,6	2980	124,0	8,4	3323	111,5	7,0
Tashish va saqlash	1299	90,3	4,7	1526	117,5	4,3	1756	115,1	3,7
Axborot va aloqa	806	82,2	2,9	856	106,2	2,4	1068	124,8	2,3
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	497	112,7	1,8	740	148,9	2,1	1029	139,1	2,2
Boshqa turlari	4715	112,7	16,9	5650	119,8	15,9	10357	183,3	21,9


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda



Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil 1 noyabr holatiga 260,8 ming tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 72,1 mingta, oilaviy korxonalar – 15,0 mingta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 166,0 mingta, va boshqalar 7,7 mingtani tashkil etadi.

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 noyabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 7155 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 1734 taga yoki 32,0 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 3837 tasi qo'shma korxonalar, 3318 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar davomida o'sishi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Toshkent shahar 4504 ta (62,9 %), Toshkent viloyati 799 ta (11,2 %) va Samarqand viloyatlari 384 ta (5,4 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Xorazm viloyati 69 ta (1,0 %), Qashqadaryo viloyati 75 ta (1,0 %), Navoiy viloyati 92 ta (1,3 %) va Qoraqalpog'iston Respublikasi 112 ta (1,6 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 noyabr holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 2871 ta (40,1 %), savdoda 1549 ta (21,6 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 1195 ta (16,7 %) tashkil qilgan. Eng kamlari esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 90 ta (1,3 %), axborot va aloqada 188 ta (2,6 %), tashish va saqlashda 206 ta (2,9 %) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 310 ta (4,3 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 295 ta (4,1 %) va

qurilishda 451 ta (6,3 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (birlikda)



2018 yilning yanvar-oktabr oyida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining soni 1899 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1228 taga ko'paygan.

Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 357 ta, Turkiya Respublikasi – 290 ta, Xitoy Xalq Respublikasi-261 ta, Qozog'iston Respublikasi – 212 ta, va Koreya Respublikasi – 141 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2018 yil davomida Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, (yanvar-oktabr holatiga) birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 582 ta, savdoda 517 ta, qurilishda 184 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 157 ta va boshqa faoliyat turlarida 242 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
soni, o'sish dinamikasi**

	2017 yil yanvar-oktabr			2018 yil yanvar-oktabr		
	Jami	O'tgan yilga nisbatan %	Umumiy soniga nisbatan %	Jami	O'tgan yilga nisbatan %	Umumiy soniga nisbatan %
Sanoat	335	143,8	47,2	582	173,7	30,7
Savdo	94	100,0	19,0	517	550,0	27,2
Qurilish	51	164,5	6,3	184	360,8	9,7
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	39	300,0	2,6	157	402,6	8,3
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	19	67,9	5,7	83	436,8	4,4
Tashish va saqlash	14	155,6	1,8	48	342,9	2,5
Axborot va aloqa	19	380,0	1,0	68	357,9	3,6
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	9	81,8	2,2	18	200,0	0,9
Boshqa turlari	91	130,0	14,2	242	265,9	12,7

Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

2018 yil 1 noyabr holatiga Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 258,7 mingtani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 noyabr holatiga qaraganda 12,2 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 58,6 mingtasi (22,6 %)


Toshkent shahriga, 24,8 mingtasi (9,6 %) Toshkent, 22,9 mingtasi (8,8 %) Farg'ona hamda 22,5 mingtasi (8,7 %) Andijon viloyatlari hissalariga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 258,7 mingta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 69,2 mingtasi (26,7 %) – savdoda, 55,0 mingtasi (21,2 %) - sanoatda, 28,3 mingtasi (10,9 %) - qurilishda, 23,6 mingtasi (9,1 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 19,3 mingtasi (7,4 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 12,9 mingtasi (5,0 %) - tashish va saqlashda, 6,6 mingtasi (2,6 %) - axborot va aloqa sohasida, 5,2 mingtasi (2,0 %) -

sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 38,8 mingtasi (15,1 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-oktabr holatiga 42,2 mingdan oshiq kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 27,1 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Toshkent shahrida (10016 ta), Toshkent (4275 ta), Samarqand (3613 ta) va Farg'ona viloyatlarida (3222 ta) tashkil etilgan. Eng kam Sirdaryo (1139 ta), Xorazm (1713 ta) hamda Navoiy (1570 ta) viloyatlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (9746 ta), sanoatda (9499 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (4922 ta) va qurilishda (5443 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (1011 ta), axborot va aloqada (1063 ta) hamda tashish va saqlashda (1748 ta) tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 noyabr holatiga 15682 tani tashkil etib, ulardan 14989 tasi yoki 95,6 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 31,0 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 37,2 % yoki 5581 tasi sanoat, 21,7 % yoki 3255 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 16,2 % yoki 2431 tasi savdo, 11,4 % yoki 1703 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,3 % yoki 188 tasi qurilish, 1,1 % yoki 158 tasi axborot va aloqa, 1,2 % yoki 174 tasi tashish va saqlash, 1,1 % yoki 165 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 8,8 % yoki 1334 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Statistik registrarni yuritish va tizimli
xizmat ko'rsatish boshqarmasi
Tel.:71-230-80-90 (91)